



Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich,
*Qo'qon universiteti professori v.b.,
 falsafa fanlari doktori (DSc)*
 e-mail: nodirjon89.86@gmail.com

URBANIZATSIYA SIYOSATI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.448>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng shaharlashtirish siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, aholi uchun qulay turmush sharoiti yaratish hamda barqaror shahar muhitini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda urbanizatsiya sohasidagi asosiy muammolar: moliyalashtirish, infratuzilma yetishmasligi, ekologiya, ish o'rinlari yaratish, uy-joy ta'minoti va davlat boshqaruvi tizimidagi kamchiliklar tahlil etilgan hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida takliflar ilgari surilgan.

Tayanch so'zlar: O'zbekiston, shaharlashtirish, urbanizatsiya, davlat siyosati, islohotlar, sun'iy urbanizatsiya, infratuzilma, aholi, barqaror rivojlanish, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy rivojlanish, ekologiya, shahar boshqaruvi.

Аннотация. В статье анализируются становление и этапы развития политики урбанизации в Узбекистане после обретения независимости. При этом уделяется внимание государственной политике по развитию городской инфраструктуры, созданию комфортных условий проживания населения и обеспечению устойчивой городской среды. В исследовании анализируются основные проблемы в сфере урбанизации – финансирование, нехватка инфраструктуры, экология, создание рабочих мест, обеспеченность жильем, а также недостатки в системе государственного управления, и выдвигаются предложения по путям их устранения.

Ключевые слова: Узбекистан, урбанизация, урбанизация, государственная политика, реформы, искусственная урбанизация, инфраструктура, население, устойчивое развитие, социальные проблемы, экономическое развитие, экология, городское управление.

Annotation. The article analyzes the formation and stages of development of urbanization policy in Uzbekistan after independence. At the same time, attention is paid to state policy on the development of urban infrastructure, the creation of comfortable living conditions for the population, and ensuring a sustainable urban environment. The study analyzes the main problems in the field of urbanization - financing, lack of infrastructure, ecology, job creation, housing supply, and shortcomings in the state administration system, and puts forward proposals for ways to eliminate them.

Keywords: Uzbekistan, urbanization, urbanization, state policy, reforms, artificial urbanization, infrastructure, population, sustainable development, social problems, economic development, ecology, urban governance.

Kirish. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar "inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyilga tayangan holda olib borilmoqda. Bu tamoyil nafaqat ijtimoiy

siyosatning, balki iqtisodiy, ma'muriy va hududiy rivojlanish strategiyalarining ham asosiy mezoniga aylanib ulgurgan. Shu bois aholiga munosib, qulay va farovon hayot sharoitlarini yaratish, ularning

bugungi kundan rozi bo'lib yashashini ta'minlash davlat siyosatining bosh maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Mazkur yo'nalishdagi eng muhim va strategik qadamlarning biri urbanizatsiya (shaharlashtirish) siyosatini izchil amalga oshirishdir. Urbanizatsiya jarayoni orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, zamonaviy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va natijada xalq farovonligiga erishish ko'zda tutiladi. Jahon tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'ygan davlatlar barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha yuqori natijalarga erishgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya sohasidagi davlat siyosati har bir mintaq, hudud va sharoitga qarab o'ziga xos tus oladi. Chunki har bir hududning tabiiy-geografik imkoniyatlari, demografik tarkibi, iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi va ijtimoiy ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, shaharlashtirish siyosatining yondashuvlari ham hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Shunga qaramay, urbanizatsiya siyosatini amalga oshirishda barcha hududlar uchun umumiy bo'lgan bir qator ustuvor yo'nalishlar va vazifalar mavjud.

Ular orasida zamonaviy shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, transport va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish, aholining uy-joy bilan ta'minlanishi, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda shahar boshqaruvini raqamlashtirish kabi vazifalar muhim o'rin tutadi. Ushbu ustuvorliklarning izchil amalga oshirilishi urbanizatsiya jarayonining samaradorligini ta'minlab, har bir hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, "iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik va atrof-muhitni muhofaza qilish muvozanatini ta'minlovchi barqaror urbanizatsiyani rag'batlantirish masalasi dunyoning istalgan davlati uchun xosdir"¹. Shu bilan birga, shahar infratuzilmasi va xizmatlari, jumladan, energiya, transport, suv va kanalizatsiya bilan ta'minlashni yaxshilash muammosi ham sohadagi

eng muhim hamda barcha uchun birdek hal etilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi.

Maqsad va uni asoslash. Maqolada urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy o'rganish maqsadida analiz va sintez, qiyosiy yondashuv, kontent tahlil, induksiya va deduksiya kabi ilmiy bilish usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu metodlar mavjud holatni chuqur tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda ularga ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Qayd etish joizki, bugungi kunda hayot sifati, shaharlararo va shaharning ichki aloqalarini yaxshilash, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirish uchun innovatsiyalarni joriy etish hamda "aqlli shaharlar" konsepsiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki zamonaviy shahar boshqaruvi axborot texnologiyalari, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari va inson tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan ijodiy yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayonlar faqat texnik yechimlarni emas, balki aholi ongida zamonaviy urbanistik madaniyatni shakllantirishni ham taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, shahar tuzilmalarini samarali rejalashtirish va boshqarish orqali ularning barqaror o'sishini ta'minlash, mavjud hududlardan oqilona foydalanish, yer resurslarini boshqarish, ekologik muvozanatni saqlash ham urbanizatsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Mazkur jarayonlarda shahar infratuzilmasining jadal rivoji, transport tizimi, uy-joy siyosati, ijtimoiy xizmatlar sifatining oshishi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, urbanizatsiya jarayonining muvaffaqiyati shahar boshqaruvi, markaziy va mahalliy hukumatlar, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar hamda xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikka bevosita bog'liq. Mazkur kooperatsiya orqali shahar muammolarini tezkor aniqlash, yechimlarni birgalikda ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati kengayadi. Hamkorlikning kuchaytirilishi nafaqat boshqaruv sifatini oshiradi, balki aholining manfaatdorligini ham ta'minlaydi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda dunyo miqyosida, jumladan, yurtimizda ham shaharlashtirish jarayonida qator muammolar dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Aholi sonining tez sur'atlar bilan ortishi,

¹ Лапинкас А.А. Современная специфика корпоративных отношений на примере вертикально-интегрированной компании. Журнал. Записка Горного института. – 2018, Т. 233. – С. 563.

infratuzilmaning yuklamaga bardosh bermasligi, transport tirbandliklari, ekologik muammolar, suv va energiya ta'minoti bilan bog'liq qiyinchiliklar, shuningdek, nazoratsiz migratsiya jarayonlari urbanizatsiya siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Shu bois, ushbu masalalar yuzasidan fikr yuritish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va samarali yechimlar topish o'rinlidir. Fikrimizcha, hozirgi kunda urbanizatsiyaning kechiktirmasdan hal etish zarur bo'lgan, mamlakatimizga xos bo'lgan bir qator muammolari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Urbanizatsiya loyihalarini moliyalashtirishning yetarli emasligi.

Shaharlarni modernizatsiya qilish, infratuzilma tarmoqlarini kengaytirish va ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi yetarli emasligi ko'plab loyihalarning sekin amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi uzoq muddatli strategik rejalarni amaliyotga tatbiq etishda jiddiy to'siqni yuzaga keltiradi.

2. Davlat idoralari o'rtasida muvofiq-lashtirishning sustligi.

Urbanizatsiya jarayoniga mas'ul bo'lgan davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani qarama-qarshi qarorlar qabul qilinishiga, vazifalarning takrorlanishiga va resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Yagona boshqaruv standarti va koordinatsiya markazining yo'qligi bu jarayonni murakkablashtiradi.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish choralari sustligi.

Urbanizatsiya jarayonida ekologik omillar yetarli darajada hisobga olinmasa, havo, suv va tuproqning ifloslanishi kuchayadi. Shaharlarni kengaytirish jarayonida yashil hududlarni saqlashga e'tibor pastligi ekologik xavfsizlikka tahdid soladi.

4. Barqaror shahar infratuzilmasi bilan bog'liq muammolarning ortishi.

Transport tizimi, suv ta'minoti va kanalizatsiya, elektr energiyasi va telekommunikatsiya kabi muhim infratuzilma obyektlarining eskirishi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi aholining kundalik hayotida ko'plab noqulayliklar tug'diradi.

5. Arzon va qulay uy-joylar bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar.

Aholining turli qatlamlari uchun qulay narxlardagi uy-joylar yetishmasligi ijtimoiy

tengsizlikni kuchaytirib, shaharlarda noqonuniy uy-joylar paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

6. Sifatli ijtimoiy xizmatlarda barqarorlikning yo'qligi.

Ta'lim, sog'likni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar sifatining bir xil emasligi hududlar o'rtasidagi farqni kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, urbanizatsiya jarayonining izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Oliy ta'limda sohaga oid kadrlar tayyorlash tizimi sustligi.

Urbanizatsiya uchun zarur bo'lgan mutaxassislar: shaharsozlar, arxitektorlar, infratuzilma muhandislari va boshqalar tayyorlanishi bo'yicha ta'lim dasturlarining zamon talablariga mos emasligi kadrlar tanqisligini keltirib chiqarmoqda.

8. Jamoat joylari va dam olish maskanlarining kamligi.

Aholi uchun ochiq maydonlar, bog'lar, madaniy maskanlar yetarlicha bo'lmagani ijtimoiy aloqalarning susayishiga, shahar hayotining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

9. Ekologik toza amaliyotlarning yetarli qo'llanmasligi.

Chiqindilarni boshqarish, uglerod izini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tatbiq etish borasida yetarli choralar ko'rilmagani ekologik xavf darajasini oshirmoqda.

10. Iqtisodiy imkoniyatlar va ish o'rinlari yaratishning sustligi.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish jarayonlari yetarli darajada rivojlanmagani, investitsiyalarni jalb qilishdagi sustlik shahar aholisining turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

11. Haddan tashqari gavjumlik va uy-joylarning nomutanosib qurilishi.

Aholi zich joylashgan hududlarda infratuzilma yuklamasi ortib boradi, bu esa ijtimoiy xizmatlar sifati pasayishiga olib keladi.

12. Yo'l harakatining tirbandligi.

Transport tizimining eskirganligi, jamoat transportining yetarli rivojlanmagani va avtomobillar sonining ortishi yirik shaharlar uchun eng dolzarb muammolardan biridir.

13. Atrof-muhitning ifloslanishi.

Sanoat chiqindilari, avtomobil gazlari, tartibsiz qurilishlar ekologik muvozanatga putur yetkazmoqda.

14. Jinoyatchilikning kuchayishi.

Shaharlarning tez kengayishi ijtimoiy nazoratning pasayishi va xavfsizlik choralari yetarli emasligi bilan birga jinoyatchilik ko'rsatkichlarining ortishiga sabab bo'ladi.

15. Arzon uy-joylarning yetishmasligi.

Uy-joy qurilishining narxlarini oshishi kam ta'minlangan oilalarning uyli bo'lish imkoniyatlarini cheklaydi.

16. Ipoteka tizimini takomillashtirish zarurati.

Kreditlash shartlarining murakkabligi va foiz stavkalarining yuqoriligi aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatini cheklaydi.

17. Noto'g'ri infratuzilma rejalashtirish.

Shaharsozlik normalariga to'liq amal qilinish kelajakda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi: tirbandlik, xavfsizlikning pastligi, xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar.

18. Davlat xizmatlarining yetarli emasligi.

Elektron xizmatlarning sust rivojlanishi va jismoniy xizmat ko'rsatish markazlarining kamligi aholiga noqulaylik tug'diradi.

19. Cheklangan jamoatchilik ishtiroki.

Fuqarolarni rejalashtirish jarayonlariga jalb etish yetarli emasligi shahar siyosatining samarasiz bo'lishiga olib keladi.

20. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga yetarli e'tibor berilmasligi.

Ekologik siyosatning yetarli darajada samarali bo'lmashligi tabiiy muvozanat buzilishiga olib keladi.

21. Infratuzilmaga sarmoya kiritishning tizimli emasligi.

Infratuzilmani yangilash bo'yicha loyihalarning tartibsiz amalga oshirilishi ularning barqaror natija berishiga to'sqinlik qiladi.

22. Yangi ish o'rinlari yaratishdagi sust-kashliklar.

Mehnat bozorining rivojlanish sur'ati urbanizatsiya sur'atlari bilan mutanosib emasligi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo'ladi.

23. Migratsiya jarayonlarini tartibga solishdagi muammolar.

Ichki migratsiya sharoitlarining yetarli tartibga solinmaganligi shaharlarning haddan tashqari zichlashuviga olib keladi.

24. Yo'ldosh shaharchalar tizimiga e'tiborning pastligi.

Sun'iy urbanizatsiya, noto'g'ri hududiy kengayish shahar markazlariga ortiqcha yuklama beradi.

25. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha faoliyatlar sustligi.

Ijtimoiy dasturlar yetarli darajada samarali bo'lmagani aholining muayyan qatlamlarini urbanizatsiya jarayonidan chetda qoldiradi.

26. Atrof-muhitni asrash masalalariga jiddiy yondashuv yetishmasligi.

Ekologik xavfsizlik masalalariga yuzaki yondashuv urbanizatsiyaning uzoq muddatli barqarorligiga tahdid soladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mashhur siyosatshunos V.P. Pugachevning fikricha, "siyosat jamoaviy, murakkab tashkil etilgan, maqsadga muvofiq faoliyat bo'lib, shaxslar o'rtasida guruh manfaatlarini va butun jamiyat manfaatlariga ta'sir etuvchi vazifalarni amalga oshirish uchun ixtisoslashgan aloqa shaklidir"². Siyosiy maqsadlarni amalga oshirish jamoaviy harakatni talab qiladi, chunki makonda tarqalgan jamoa a'zolari: davlat, millat, ijtimoiy guruhlar, partiyalar va boshqalarning faoliyatini anglash hamda muvofiqlashtirish zarur bo'ladi. Bu jarayon odamlar o'rtasidagi bevosita muloqotsiz amalga oshmaydi, shuning uchun ma'lumot almashishning maxsus siyosiy va texnologik usullaridan foydalanish talab etiladi. Natijada jamiyat ongida umumiy fikr – jamoatchilik fikri vujudga keladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng shaharlashtirish yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirildi. Biroq bu sohada belgilangan vazifalarning ijrosi kutilgan darajada samara bermadi. Shu bois mazkur masalaga baho berishda ayrim raqamli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. "O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan 1991-yildan 2008-yilgacha shahar aholisining rivojlanishi va o'sishi qishloq aholisining o'sish sur'atlariga nisbatan pastroq edi. Shunday qilib, shahar aholisining ulushi 1991-yilda 40,3% ni tashkil etdi va 2008-yilga kelib u 35,8% gacha kamaydi"³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

² Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 479 с.

³ Baydjanov Ibadulla, Samandarov Maxmud. MULOHAZA: iqtisodiy urbanizatsiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2017. – B. 41.

to'g'risida"gi PQ-120-son qarori⁴ va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi⁵ VM-68-son (2021-yil 22-fevralda o'z kuchini yo'qotgan) qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining qishloq aholi punktlarini shahar aholi punkti maqomini berish mezonlari ishlab chiqildi.

Natijada "2011-yilda 2007-yilga nisbatan shahar aholisi soni 55,4 foizga ko'paygan bo'lsa, qishloq aholisi esa 18,7 foizga kamaygan. Shu bilan birga, bu davrda jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 35,4 foizdan 51,2 foizga ortgan, qishloq aholisidiki esa 64,6 foizdan 48,8 foizga kamaygan. Qishloq aholisi sonining kamaygani esa yuqoridagi qarorga ko'ra mamlakatimizdagi 966 ta qishloq punktiga shaharcha maqomi berilgani bilan izohlanadi"⁶. Bundan ko'rinadiki biz shaharlashtirish siyosatida sun'iy urbanizatsiya ortidan quvib real voqelikka ma'lum vaqt ko'z yumib keldik.

Shuning uchun bo'lsa kerak, urbanizatsiya, ya'ni shaharlashtirish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Dunyoda va ayniqsa mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro reyting ko'rsatkichiga ko'ra, O'zbekiston 2018-yilda urbanizatsiya darajasi bo'yicha dunyoning 233 mamlakat orasida 155-o'rinni egalladi"⁷.

Mamlakatimizda shaharlar sonining o'sishi kamaygan. "2012-yildan hozirgi kungacha shaharlarning soni (119 ta) o'zgarmagan, mamlakat shahar tarmog'ining asosini kichik shaharlar tashkil etadi (shaharlarning umumiy sonining 68,1%).

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-120.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-68-son Qarori.

⁶ "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha Samarqand viloyatida 2012 yilda bajarilgan ishlar va 2013 yildagi ustvor vazifalar"ni o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2013. – B. 61.

⁷ <https://daryo.uz/k/2019/02/16/ozbekiston-urbanizatsiya-boyicha-233-mamlakat-orasida-155-orinni-egalladi/>

O'zbekistonga xos shaharsozlikning yana bir xususiyati shundaki, shahar aholisining deyarli to'rtadan bir qismi (24,2%) poytaxt Toshkentda yashaydi"⁸. Respublikada shahar aholi punktlarining nisbatan ko'p bo'lishi, ularning tarkibiy va xususiy jihatlar bilan ham izohlanishi mumkin.

Shuni qayd etish kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimizda shaharlashtirish siyosati va uni amalga oshirishga oid ustuvor yo'nalishlar yangilanib, o'zgarishlarga uchradi. Olib borilgan islohotlar natijasida bu sohada muhim va chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvarda qabul qilingan "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5623-son Farmoni misolida ko'rishimiz mumkin⁹. Ushbu Farmon mamlakatimizda shaharlashtirish sohasidagi o'zgarishlarni navbatdagi bosqichga olib chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, "O'zbekiston mamlakat aholisining 2023-yil 1-yanvarda 36,024 mln kishini tashkil etganligi mamlakat rahbariyatidan barcha sohalarda samarali boshqaruv tamoyillarini joriy etishni talab qilmoqda"¹⁰. Jumladan, shaharlashtirish siyosatini takomillashtirish jarayonida ham.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonining izchil rivojlanishini ta'minlash uchun kechiktirmasdan hal etilishi lozim bo'lgan qator dolzarb masalalar mavjud. Ushbu muammolarni chuqurroq tadqiq etish, ularning har biri bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar tayyorlash hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Urbanizatsiya jarayonining o'z vaqtida va to'g'ri boshqarilishi nafaqat shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki aholining farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada ilgari surilgan takliflarni bosqichma-bosqich amalga

⁸ Baydjanov Ibadulla, Samandarov Maxmud. MULOHAZA: iqtisodiy urbanizatsiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2017. – B. 40.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvarda qabul qilingan "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5623-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4154818>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

o'shish esa mazkur yo'nalishda uchrayotgan asosiy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil va tizimli ijrosi urbanizatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirib, qolgan ko'plab murakkab masalalarning ham tabiiy

ravishda yechim topishiga xizmat qiladi. Shu bois urbanizatsiyani ilmiy asosda rivojlantirish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tizimli hal etish kelgusida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim garovi bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лапинскас А.А. Современная специфика корпоративных отношений на примере вертикально-интегрированной компании. Журнал. Записка Горного института. – 2018, Т. 233.
2. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 479 с.
3. Baydjanov Ibadulla, Samandarov Maxmud. MULOHAZA: iqtisodiy urbanizatsiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-120-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" VM-68-son qarori
6. "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha Samarqand viloyatida 2012 yilda bajarilgan ishlar va 2013 yildagi ustvor vazifalar"ni o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2013.
7. <https://daryo.uz/k/2019/02/16/ozbekiston-urbanizatsiya-boyicha-233-mamlakat-orasida-155-orinni-egalladi/>
8. Baydjanov Ibadulla, Samandarov Maxmud. MULOHAZA: iqtisodiy urbanizatsiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2017.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvarda qabul qilingan "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5623-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4154818>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>